



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 154 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	

FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI VA UNING EKSPERIMENTAL SAMARADORLIGI

Isroilova E'zoza Akmal qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasini fanlararo aloqadorlik asosida takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari va eksperimental samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda "Til-Fan-Amaliyot" (TFA) konsepsiyasi, "Fanlararo lingvodidaktik ko'prikl" (FLK) modeli, terminologik kartalashtirishga asoslangan modulli o'quv tizimi hamda "Inter-Med" multimedia platformasi ishlab chiqilgan. To'rtta tibbiyot OTMida 130 talaba ishtirokida o'tkazilgan kvazi-eksperiment natijalari matematik-statistik usullar (Styudent t-mezoni, χ^2 -mezoni, Koen effekt hajmi, Bepalko koeffitsiyenti) vositasida tahlil qilingan. Natijalar metodikaning an'anaviy yondashuvga nisbatan yuqori samaradorligini isbotlagan.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, fanlararo aloqadorlik, ESP, CLIL, terminologik kartalashtirish, lingvistik-kasbiy kompetentlik, effekt hajmi, kvazi-eksperiment.

Abstract: This article presents the theoretical-methodological foundations and the experimental effectiveness of improving the methodology of teaching English at medical higher education institutions on the basis of interdisciplinary connection. The study developed the "Language-Science-Practice" (LSP) concept, the "Interdisciplinary Linguodidactic Bridge" (ILB) model, a modular learning system based on terminological mapping, and the "Inter-Med" multimedia platform. The results of a quasi-experiment conducted with 130 students at four medical universities were analysed using mathematical-statistical methods (Student's t-test, χ^2 -test, Cohen's effect size, Bepalko coefficient). The findings proved the higher effectiveness of the methodology compared with the conventional approach.

Key words: medical English, interdisciplinary connection, ESP, CLIL, terminological mapping, linguistic-professional competence, effect size, quasi-experiment.

Аннотация: В статье раскрываются теоретико-методические основы и экспериментальная эффективность совершенствования методики обучения английскому языку в медицинских высших образовательных учреждениях на основе междисциплинарной связи. В исследовании разработаны концепция "язык-наука-практика" (ЯНП), модель "междисциплинарного лингводидактического моста" (МЛМ), модульная учебная система на основе терминологического картирования и мультимедийная платформа "Inter-Med". Результаты квазиэксперимента с участием 130 студентов четырёх медицинских вузов проанализированы с помощью математико-статистических методов (t-критерий Стьюдента, χ^2 -критерий, размер эффекта Козна, коэффициент Беспалько). Результаты доказали более высокую эффективность методики по сравнению с традиционным подходом.

Ключевые слова: медицинский английский, междисциплинарная связь, ESP, CLIL, терминологическое картирование, лингвопрофессиональная компетентность, размер эффекта, квазиэксперимент.

KIRISH

Zamonaviy tibbiyot fani va amaliyotida ingliz tili ilmiy-kasbiy kommunikatsiyaning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Ilmiy-metrik tahlillarga ko'ra, PubMed xalqaro platformasidagi 36 milliondan ortiq nashrning qariyb 86,5 foizi ingliz tilida chop etilgan. Bo'lajak shifokor uchun xalqaro adabiyotni o'qish, bemor va hamkasblar bilan muloqot qilish hamda xalqaro sertifikatlariga tayyorgarlik ko'rish nuqtayi nazaridan kasbiy ingliz tilini egallash klinik kompetentlikning ajralmas qismiga aylandi.

Biroq tibbiyot OTMlarida ingliz tilini o'qitish metodikasi nazariy jihatdan yetarlicha integratsiyalashmagan. Ko'pchilik metodikalar muammoning faqat bir qirrasini (terminologiya, baholash yoki axborot texnologiyalari)



qamrab oladi; til, mutaxassislik mazmuni va amaliyot esa yaxlit emas, balki parallel o'qitiladi. Til va mutaxassislik kafedralari o'rtasidagi metodik hamkorlik institutsional darajada tashkil etilmagan. Ushbu ziddiyat fanlararo aloqadorlik asosidagi yaxlit metodikani ishlab chiqishni dolzarb muammoga aylantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi - fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot OTMlarida ingliz tilini o'qitishning yaxlit metodikasini nazariy asoslash va uning samaradorligini eksperimental yo'l bilan isbotlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) nazariyasi T. Dudley-Evans va M.J. St John tomonidan chuqur ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quv mazmunini o'rganuvchining real ehtiyojlari tahlili (needs analysis) asosida belgilashni ESP kursi dizaynining boshlang'ich nuqtasi deb hisoblaydilar.

T. Hutchinson va A. Waters esa o'rganuvchiga yo'naltirilgan yondashuvni asoslaganlar.

D. Coyle, P. Hood va D. Marsh mazmun va tilni integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) konsepsiyasini rivojlantirib, til va fan mazmunini o'zaro foyda asosida birgalikda o'qitish mumkinligini ko'rsatganlar.

G. Ferguson va H. Basturkmen tibbiy ingliz tilini (EMP) o'qitishning o'ziga xos jihatlari yoritganlar.

Raqamli ta'lim sohasida P. Mishra va M.J. Koehler ishlab chiqqan TPACK modeli texnologiya, pedagogika va mazmun bilimlarining kesishmasida samarali o'qitish yuzaga kelishini asoslaydi. R. Puente'duranning SAMR modeli esa texnologiyadan foydalanishning oddiy almashtirish (substitution) darajasidan tortib ta'limni tubdan o'zgartirish (redefinition) darajasigacha bo'lgan bosqichlarini farqlaydi. O'zbekiston pedagogikasida T.Q. Sattarov, D.U. Xoshimova, I.M. Tuxtasinov, I.X. Iminaxonova, D.D. Buranova kabi olimlarning tadqiqotlari kasbiy yo'naltirilgan til ta'limi va terminologik kompetentlik masalalarini yoritgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ESP, CLIL va EMI yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi, biroq o'zaro almashtirib bo'lmaydigan mavqelarni egallaydi va ularning hech biri, alohida olinganda, til va mutaxassislik kafedralari o'rtasidagi hamkorlikni institutsionallashtirmaydi. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy o'rnini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-analitik va empirik bosqichlarni o'z ichiga oldi. Nazariy bosqichda mazmun tahlili, qiyosiy tahlil va terminologik-komponent tahlil qo'llanildi. Ishlab chiqilgan metodika to'rtta innovatsiyani - "Til-Fan-Amaliyot" (TFA) konsepsiyasi, "Fanlararo lingvodidaktik ko'prik" (FLK) modeli, terminologik kartalashtirishga asoslangan modulli o'quv tizimi hamda "Inter-Med" multimedia platformasini o'z ichiga oladi. FLK modeli til va mutaxassislik kafedralari hamkorligini to'rt darajada (strategik muvofiqlashtirish, metodik seminarlar, binar darslar va terminologik kartalashtirish) tartibga soladi (1-rasm).

FLK modelining tashkiliy mexanizmi: kafedralararo ko'prik



1-rasm: FLK modelining tashkiliy mexanizmi - kafedralararo ko'prik

Empirik bosqichda tenglashtirilgan nazorat guruhli kvazi-eksperiment (nonequivalent control group pretest-posttest design) qo'llanildi. Talabalar o'quv rejasi bilan shakllangan tabiiy akademik guruhlariga birlashtirilgan sababli tasodifiy taqsimlash o'rniga guruhlar mos ravishda taqsimlandi va boshlang'ich tenglik statistik jihatdan asoslandi. Eksperiment to'rtta tibbiyot OTMida (TDTU, SamDTU, ADTI, FarJSTI) 130 talaba ishtirokida (tajriba guruhi - 65, nazorat guruhi - 65) o'tkazildi.



Kompetentlik to'rt mezonli tizim asosida o'lchandi: terminologik (25), kognitiv-integrativ (25), og'zaki-kommunikativ (30) va motivatsion (20) - jami 100 ball.

Baholash vositalarining ishonchiligi va validligi psixometrik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlandi:

- KR-20 = 0,841;
- Kronbax α = 0,793;
- mazmuniy validlik CVR = 0,948 (Lawshe usuli); ekspert baholari muvofiqligi ICC = 0,941.

Natijalar Student t-mezone, χ^2 -mezone, Koen effekt hajmi (d) va Bepalko o'zlashtirish koeffitsiyenti (Ka) vositasida tahlil qilindi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki kesimda tajriba va nazorat guruhlarida barcha mezonlar hamda umumiy ko'rsatkich bo'yicha statistik jihatdan farqlanmadi (TG 52,53 $\pm$ 4,93; NG 51,88 $\pm$ 5,04; t = 0,74; p = 0,461), daraja taqsimoti ham teng bo'ldi (χ^2 = 1,34; p = 0,51). Boshlang'ich tenglik yakuniy farqni eksperiment ta'siriga bog'lash imkonini beradi. Dastlabki kesim ma'lumotlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Dastlabki kesim natijalari (mezonlar bo'yicha, M $\pm$ SD)

Mezon (maks.)	TG (n=65)	NG (n=65)	t	p
Terminologik (25)	12,02 $\pm$ 2,87	11,68 $\pm$ 2,22	0,75	0,453
Kognitiv-integrativ (25)	11,29 $\pm$ 2,42	11,66 $\pm$ 3,65	-0,68	0,498
Og'zaki-kommunikativ (30)	19,10 $\pm$ 2,51	18,35 $\pm$ 2,16	1,83	0,069
Motivatsion (20)	10,12 $\pm$ 1,17	10,20 $\pm$ 1,06	-0,39	0,695
UMUMIY (100)	52,53 $\pm$ 4,93	51,88 $\pm$ 5,04	0,74	0,461

Yakuniy kesimda tajriba guruhi umumiy ko'rsatkich va to'rtta mezon uchun ustun bo'yicha nazorat guruhidan ustun keldi. Ustunlik kognitiv-integrativ (t = 2,73; p = 0,007), og'zaki-kommunikativ (t = 2,97; p = 0,004) va motivatsion (t = 3,96; p < 0,001) mezonlar bo'yicha statistik ahamiyatli bo'ldi. Terminologik mezon uchun farq (t = 1,43; p = 0,155) ahamiyatli darajaga yetmadi, chunki har ikkala guruh ham terminologiyani bir xil darajada o'rgangan. Mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil 2-rasmda keltirilgan.



Barcha mezonlarda tajriba guruhi ustunligi kuzatiladi; UMUMIY ko'rsatkichda farq statistik ahamiyatli (p<0,001)

2-rasm: Yakuniy kesim natijalari - mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil (TG va NG)

Ichki o'sish tahlili farqni yanada aniq ko'rsatadi: tajriba guruhida o'sish +7,80 ball (t = 8,86; p < 0,001), nazorat guruhida esa atigi +4,04 ball (t = 4,70; p < 0,001) bo'ldi. Ya'ni tajriba guruhi o'sishi qariyb ikki baravar yuqori. Guruhlararo o'rtacha farq 4,41 ballni tashkil etdi, 95 % ishonch oralig'i [2,71; 6,11] nolni o'z ichiga olmaydi. Standartlashgan effekt Koen mezonlari bo'yicha katta bo'ldi: d = 0,891.



Bespalko o'zlashtirish koeffitsiyenti tajriba guruhida 0,5 mustahkamlik chegarasidan yuqori ($Ka = 0,603$), nazorat guruhida esa $Ka = 0,559$ bo'ldi. Sifat jihatidan o'zgarish daraja taqsimotida yaqqol namoyon bo'ldi: tajriba guruhida reproduktiv daraja 42 %dan 3 %ga tushdi, kreativ daraja esa 5 %dan 42 %ga ko'tarildi. Dastlabki kesimda teng bo'lgan daraja taqsimoti ($\chi^2 = 1,34$; $p = 0,51$) yakuniy kesimda sezilarli farqlandi ($\chi^2 = 18,81$; $p < 0,001$). Yakuniy samaradorlik ko'rsatkichlari 3-rasmda umumlashtirilgan.



3-rasm: Metodika samaradorligining yakuniy ko'rsatkichlari va gipoteza tekshiruv

Barcha ko'rsatkichlar ($d = 0,891$; $Ka(TG) = 0,603$; $\eta = 1,079$; $\chi^2 = 18,81$; $t = 5,08$; $p < 0,001$) metodikaning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Shu asosda nol gipoteza (H_0) rad etildi va muqobil gipoteza (H_1) qabul qilindi, ya'ni fanlararo aloqadorlik asosidagi metodika bo'lajak shifokorlarning lingvistik-kasbiy kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy metodikaga nisbatan ancha samarali ekani ilmiy asoslandi. Yakuniy samaradorlik ko'rsatkichlari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval: Effekt hajmi, mustahkamlik va samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Qiymat	Talqin
Koen effekt hajmi (d)	0,891	katta effekt ($\geq 0,8$)
O'rtacha farq (95% ishonch)	4,41 [2,71; 6,11]	ishonchli; nolni chetlaydi
Bespalko Ka (TG)	0,603	o'zlashtirish ta'minlangan ($\geq 0,5$)
Bespalko Ka (NG)	0,559	chegara atrofida
Samaradorlik η (TG/NG)	1,079	TG 7,9% yuqori
χ^2 (daraja taqsimoti)	18,81 ($p < 0,001$)	sifat jihatidan farq

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot OTMlarida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha nazariy asoslangan va amalda tasdiqlangan yaxlit yechimni taqdim etdi. Nazorat qilingan ko'p markazli kvazi-eksperiment sharoitida metodika an'anaviy yondashuvga nisbatan katta va statistik ahamiyatli ustunlikni ($d = 0,891$; $t = 5,08$; $p < 0,001$) ko'rsatdi; tajriba guruhida o'zlashtirish ta'minlandi va kreativ darajaga ko'tarilgan talabalar ulushi sezilarli darajada oshdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 1) tibbiyot OTMlarida "Tibbiyotda ingliz tili" fani o'quv dasturini takomillashtirishda mutaxassislik fanlari bilan muvofiqlashtirilgan mazmun bloklaridan foydalanish;
- 2) til va mutaxassislik kafedralari hamkorligini FLK modeli asosidagi reglament orqali tartibga solish;
- 3) terminologik kartalashtirishga asoslangan modulli tizim va tibbiy izohli terminologik lug'atdan foydalanish;
- 4) "Inter-Med" platformasini o'quv jarayoniga keng joriy etish. Metodikaning universalligi uni boshqa nofilologik yo'nalishdagi OTMlarga ham moslashtirib joriy etish imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998. - 301 p.
2. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 183 p.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010. - 184 p.
4. Mishra P., Koehler M.J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. - 2006. - Vol. 108, No. 6. - P. 1017-1054.
5. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. 2nd ed. - Hillsdale (NJ): Lawrence Erlbaum, 1988. - 567 p.
6. Macaro E. et al. A systematic review of English medium instruction in higher education // Language Teaching. - 2018. - Vol. 51, No. 1. - P. 36-76.
7. Lawshe C.H. A quantitative approach to content validity // Personnel Psychology. - 1975. - Vol. 28, No. 4. - P. 563-575.
8. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - Москва: Педагогика, 1989. - 192 с.
9. Tuxtasinov I.M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2019.
10. Buranova D.D. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.